

**OFITSER-O'QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI****Zufarov Sherzod Mirdjalilovich,****O'zbekiston Respublikasi Habiylar havfsizlik va mudofaa universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent**

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogik mahorat va uning o'ziga xosliklari, yosh ofitser-o'qituvchining pedagog mahoratini shakllantirishga doir turli yondashuvlar tahlil etilgan hamda samarali usullari bayon etilgan. Shuningdek, maqolada muallif tomonidan harbiy pedagogning pedagogik mahoratini shakllantirishga doir taklif va tavsiyalar taqdim etilgan.

Tayanch so'zlar: mahorat, pedagogik mahorat, harbiy pedagogning mahorati, tayorlov, reproduktiv, adaptiv, ijodiy.

Bugungi zamonaviy Qurolli kuchlar tizimi, oliy harbiy ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan ofitser-o'qituvchilarning professional tayyorgarligiga yangi talablarni qo'yimoqda. Bu oliy harbiy professional ta'lim muassasalarining o'quv jarayonini takomillashgani, ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash, o'quv bazasini texnik jihatdan jixozlanganligi, shuningdek dunyoda va yurtimizda harbiy-siyosiy vaziyat bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liqdir.

Oliy harbiy ta'lim muassasalarida mehnat qilayotgan ofitser-o'qituvchining faoliyati o'ziga xos xususiyatga egadir: kasbning yuqori avtonomlashgani, yuqori darajadagi aqliy mehnat faoliyati va shaxsiy mas'uliyatni; pedagogik faoliyati va ilmiy izlanish negizida uzluksiz ravishdagi o'zini rivojlantirish ehtiyojiga egaligidir.

Zamonaviy ofitser-o'qituvchi quyidagi talablarga javob bera olishi kerak, xususan uch ko'rinishda yaxlit mujassamlilikni: o'qituvchi, o'rgatuvchi, ustoz (bilim berishi, kursantlarning aktivligini rag'batlantirish, ularning ko'nikma va malakalarni shakllantirish); tarbiyachi (kursant shaxsini xar tomonlama rivojlanishi uchun g'amxo'rlik qilish, professional va psixologik sifatlarni shakllantirish); olim yoki tadqiqotchi (o'zi o'tayotgan fan soxasi doirasida ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanish).

Buning xammasi Qurolli kuchlar tizimida faoliyat ko'rsatayotgan ofitser-o'qituvchilarning pedagogik mahoratini shakllantirish va rivojlantirish professional zaruriyati ekanligini belgilaydi.

Mahorat faoliyatda namoyon bo'ladi. Pedagogika fanida "Pedagogik mahorat" tushunchasining turli ta'riflari mavjud:

1. Pedagogik mahorat pedagogik faoliyatning yuqori darajasi bo'lib, u pedagogning belgilangan vaqt ichida optimal natijalarga erisha olishida namoyon bo'ladi. (N.V.Kuzmina., N.V.Kuxarev).

2. "O'qituvchining ilmiy bilimlari, ko'nikmalari, metodik san'ati va shaxsiy fazilatlarini sintezi" (A.I.Sherbakov).

3. "Pedagogik faoliyatni egallanganlikning yuqori darajasi, ixtisoslikka doir bilim, ko'nikma va malakalar hamda kasbiy ahamiyatli sifatlarni majmui" (Pedagogik lug'at).

4. "Pedagogik mahorat deganda o'qituvchining pedagogik-psixologik bilimlarni, kasbiy malaka va ko'nikmalarni mukammal egallashi, o'z kasbiga qiziqishi, rivojlangan



pedagogik fikrlashi va intuitsiyaci, hayotga axloqiy–estetik munosabatda bo‘lishi, o‘z fikr-mulohazasiga ishonchi va qat’iy irodasi tushuniladi” (I.P. Rachenko).

5. Pedagogik mahorat – pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish, pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezi (N.N.Azizxo‘jaeva).

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, “Pedagogik mahorat” tushunchasiga quyidagi tarzda umumlashgan ta’rifni berish mumkin:

Pedagogik mahorat – bu o‘quv jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo‘naltirish, o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularda jamiyat uchun zarur bo‘lgan faoliyatga moyillik uyg‘otishdir.

Respublikamizda Oliy harbiy ta’lim tizimini doimiy rivojlanishi va takomillashib borishi oliy harbiy ta’lim muassasalarida mehnat qilayotgan ofitser-o‘qituvchilaridan doimiy ravishda o‘z ustida ishlashni va professional faoliyatini o‘zgartirib borishini talab qiladi. Mazkur tezisimizda yosh ofitser-o‘qituvchining pedagogik mahoratini shakllantirishning to‘rt bosqichini ko‘rib chiqamiz.

Birinchi tayyorlov davri (bosqichi) bo‘lajak o‘qituvchining muayyan Oliy harbiy ta’lim muassasasida, harbiy qismdagi o‘qish davrni o‘z ichiga oladi va kursantni shaxsga munosabati va pedagogik mahoratini shakllanishining ilk qadami sifatida xarakterlanadi. Dars berayotgan ofitser-o‘qituvchilar faoliyatini ongli ravishda qiyosiy tahlil qiladi, ularning qo‘llayotgan usul va metodlarini o‘zlashtiradi va o‘zlariga nisbatan bo‘layotgan munosabatning o‘zidayoq pedagogik mahorat haqidagi ilk tushunchalar shakllanadi. Aynan shu davrda pedagogik qobiliyat va baholash mezonlari shakllana boshlaydi. Bu dars berayotgan yosh ofitser-o‘qituvchiga xam taxsil olayotgan kursant uchun xam bir xilda xizmat qiladi. Sababi dars jarayonida baholanadi va nazorat qilib boriladi.

Ikkinchi reproduktiv davr (bosqich) bo‘lib - bu tayanch doktoranturada o‘qish davri yoki o‘qituvchi lavozimiga tayinlanganligiga 2-3 yil bo‘lgan davrga to‘g‘ri keladi, bu davrda o‘zining ish faoliyatini ongli ravishda to‘liq tushunib yetgan holda nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni tekshirish, pedagogik qarash, shaxsiy prinsip va shartlar shakllanadi. Bu davrda o‘qituvchi o‘zining asosiy diqqatini fan mazmuni va nazariyani o‘rganishga hamda uni o‘qitish metodikasini chuqurroq o‘rganishga e’tibor qaratadi. Loyixalash faoliyati asosan yaqin kelib qolgan darslarni ma’lumotini shakllantirishga va rejalashtirishga tayanadi. Darslar reproduktiv darajada uzining tajribasi, tajribali metodistlarning reja-konspektlari asosida olib boriladi. Mahorat esa mana shu davr ichida shakllanib, tsikl yakuniga borib tizimli harakterga ega bo‘la boshlaydi. Aynan mana shu davrda yangitdan ish boshlagan yosh ofitser-o‘qituvchiga tajribali metodistlar tomonidan qo‘llab quvvatlanishi zarur bo‘ladi.

Uchinchi (bosqich) adaptiv davr. Bu o‘tayotgan fanni chuqur o‘zlashtirish va uni o‘qitish metodikasini takomillashtirish bilan bog‘liqdir. Maxsus-harbiy va harbiy-texnik fan o‘qituvchilariga mazkur davr ikki yildan besh yilgacha davom etadi. Buning barchasi odatda kursantlarni to‘liq tsiklini yakunlash va semestr yakuni, fan bo‘yicha davlat imtixonlarini topshirishi, diplom ishlarini ximoya qilishi natijasida ongli ravishdagi tahlil (yutuq va



kamchiliklar) bilan bog'liq bo'ladi. Aynan shu davrda ofitser-o'qituvchi, tajribali metodistlar rahbarligida o'qitish metodikasining yuqori – evristik darjasini o'zlashtiradi va o'quv dasturlari, metodik ishlanmalar, darsga o'quv va didaktik materiallarni va kafedrada o'quv-moddiy bazasini takomillashtirishda bevosita ishtirok etadi.

To'rtinchi davr (bosqich) ijodiy – bu davr o'zida ijodiy qayta aloqani ya'ni natija berishni nazarda tutadi, ofitser-o'qituvchi besh-o'n yil davomida o'zini fanini mazmuni va o'qitish metodikasini o'zlashtirib, harbiy oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni shakllantirish yo'lida o'z fanida ongli va ijodiy ravishda mustahkam o'rnini topishi va bu lokal-modellashtirish, bilimlarni tizimli-modellash, tizimli-modellashtirish darajasida faoliyatini tashkil etgan holda fanni o'qitib boradi, o'qitish metodikasini takomillashtiradi, pedagogik qobiliyatini doimiy rivojlantirib boradi. Bu davr o'qituvchini katta o'qituvchi, kurs rahbari, metodik kengash rahbari, kafedra boshlig'i va uning o'rinbosari lavozimlariga tayinlov davriga to'g'ri keladi.

Xulosa qilib aytganda, yosh ofitser-o'qituvchining pedagogik mahorati deganda – murakkab ijtimoiy-psixologik ta'lim tizim bo'lib u o'zida shaxsni professionalligini namoyon etgan holda, shartli ravishda muayyan daraja yoki bosqichlarga: **tayyorlov, reproduktiv, adaptiv va ijodiy** (lokal-modellashtiruvchi, bilimlarni-tizimli modellashtirish, tizimli-modellash) bosqichlarga ajratish mumkin. Pedagogik mahorat faqatgina yillar davomida katta mehnat bilan shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. SATIB-ALDIEV A.A., Ofitser-o'qituvchining pedagogik mahorati: darslik – T.: O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi, 2019.-264 b.
2. Ro'ziyeva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019.
3. Холиков А.А. Педагогик маҳорат. Дарслик. – Тошкент, Иқтисод молия, 2012.
4. Omonov N.T., Madyarova S.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Iqtisod–moliya, 2009.
5. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Т.: “Fan va texnologiyalar” нашриёти, 2006.